

UDK 582.736:502.172(575.1)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN FABACEAE
OILASI VAKILLARINING MUHOFAZASIGA AMALIY TAVSIYALAR**

**ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОХРАНЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ
СЕМЕЙСТВА FABACEAE, ЗАНЕСЁННЫХ В КРАСНУЮ КНИГУ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

**PRACTICAL RECOMMENDATIONS FOR THE CONSERVATION OF
FABACEAE SPECIES INCLUDED IN THE RED BOOK OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

Valijon Mahmudov

Farg‘ona davlat universiteti

Dotsenti, b.f.n.

valijonmakh@gmail.com +998905500146

ORCID ID 0009-0006-5801-6509

Nazarqulov Ahadjon Mamanazar o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti, magistranti

Ahadjonbiolog@gmail.com +998945567275

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-6198-8721>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobining 2019 yilgi nashriga kiritilgan Burchoqdoshlar – Fabaceae oilasi vakillarining tarqalishi, ekologik va muhofaza holati tahlil qilindi. Ushbu oila tahlili jarayonida 4 ta guruh bo‘icha ham qizil kitobga kiritilgan turlar uchrayabdi. Soni qisqarib borayotgan turlar tahlil qilinganda asosan bu turlarni yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘luvchi omillar quyidagicha guruhlarga bo‘linadi: chorva molarining nazoratsiz boqilishi, yerlarni qishloq xo‘jaligi uchun o‘zlashtirilishi, dorivor o‘simlik sifatida foydalanishish, antropogen omillar, iqlim o‘zgarishlari. Yuqorida ko‘rsatilgan omillarga alohida e‘tibor berish kerak chunki turlar soni kundan kunga kamaymoqda.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы распространение, экологические особенности и состояние охраны представителей семейства бобовых (Fabaceae), включённых в издание Красной книги Республики Узбекистан 2019 года. В процессе исследования были изучены виды данного семейства, занесённые в Красную книгу, по 4 группам. Анализ видов с сокращающейся численностью показал, что основными факторами, приводящими к их исчезновению, являются: неконтролируемый выпас скота, освоение земель под сельскохозяйственные нужды, чрезмерное использование растений в качестве лекарственного сырья, антропогенные воздействия и изменения климата. Особое внимание необходимо уделить указанным факторам, поскольку численность данных видов с каждым годом сокращается.*

Abstract: *This article analyzes the distribution, ecological characteristics, and conservation status of representatives of the legume family (Fabaceae) included in the 2019*

edition of the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan. During the study, the species of this family listed in the Red Data Book were examined according to four groups. The analysis of species with declining populations showed that the main factors leading to their disappearance include uncontrolled livestock grazing, conversion of land for agricultural purposes, excessive use of plants as medicinal resources, anthropogenic impacts, and climate change. Special attention should be paid to these factors, as the number of these species is decreasing year by year.

KIRISH

Atrof-muhit va o‘simliklar olamini muhofaza qilish masalasi zamonaviy ekologik muammolar tizimida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida tabiiy resurslardan keng ko‘lamda va ko‘pincha nazoratsiz foydalanish natijasida ekologik muvozanatning buzilishi, iqlim o‘zgarishi, tuproq degradatsiyasi hamda bioxilma-xillikning qisqarishi kabi salbiy jarayonlar yuzaga kelmoqda. Shu bois atrof-muhitni asrash masalasi nafaqat tabiiy fanlar, balki ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy sohalarining ham dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan.

“Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simlik turlarining kamyoblik darajasi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi (IUCN) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy mezonlar asosida tasniflanadi. Mazkur tasnif o‘simlik turlarining populyatsion holati, arealining kengligi, son dinamikasi hamda ularga ta’sir etuvchi ekologik va antropogen omillarni kompleks baholashga tayanadi. Tabiiy yoki antropogen omillar ta’sirida populyatsiyasi kamayib borayotgan turlar. Hozircha yo‘qolish xavfi yuqori bo‘lmasa-da, nazorat va muhofaza talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Burchoqdoshlar (Fabaceae) — ikki urug‘pallali o‘simliklar sinfiga mansub yirik oilalardan biri hisoblanadi. Mazkur oila vakillari Yer sharining deyarli barcha tabiiy-geografik mintaqalarida keng tarqalgan. Burchoqdoshlar barglarining ketma-ket joylashishi, gullarining boshhoqsimon yoki shingilsimon to‘pgullarda joylashishi hamda mevasi dukkak shaklida bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda burchoqdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarning dunyo bo‘yicha taxminan **500 ga yaqin turkumi** va **12 000 dan ortiq turi** ma’lum. O‘zbekiston florasida esa ushbu oilaning **57 turkumi** va **528 turi** uchraydi. Mavjud turlardan **54 tasi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan** bo‘lib, ular noyob va muhofazaga muhtoj o‘simliklar hisoblanadi. Burchoqdoshlar oilasi vakillari oqsil moddalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikda yem-xashak sifatida hamda qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Ushbu oila vakillarining sistematik tasnifi quyidagicha keltiriladi.

Bo‘lim: Magnoliyatoifa (Magnoliophyta)

Sinf: Magnoliyasimonlar (Magnoliopsida)

Sinfcha: Ra‘nokabilar (Rosoidae)

Qabila: Burchoqnamolar (Fagales)

Oila: Burchoqdoshlar (Fabaceae)

Burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga kiruvchi o‘simliklarning hayotiy shakllari Serebryakov tasnifi asosida tahlil qilinganda, ularning barchasi yer usti o‘tsimon o‘simliklari

bo‘limiga mansub ekanligi aniqlangan. Ushbu oiladagi turlar orasida 39 tasi ko‘p yillik, 2 tasi bir va ikki yillik, 5 tasi buta, 8 tasi yarim buta, daraxtlar esa kam sonli ekanligi kuzatilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘simliklarning 48 turi tabiiy sharoitda o‘sib, ularning madaniylashtirilganligi haqida ma‘lumot mavjud emas. Faqat 6 tur o‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika bog‘ida madaniylashtirilganligi tasdiqlangan. Shuningdek, oilaning vakillari asosan tog‘li hududlarda uchrashi aniqlangan. “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitob”ning 2006 va 2019 yillardagi nashrlarida burchoqdoshlar oilasi vakillarining holati o‘rganilganda, 2006 yilda ro‘yxatga kiritilgan 60 turdan 6 tasi 2019 yilgi nashrdan chiqarib tashlanganligi ko‘rsatildi. Bu muhofaza choralari samaradorligidan dalolat beradi. Turlar sonining kamayishiga asosiy sabab sifatida o‘simliklarning piyoz va tuganaklari bilan yulib olinishi, chorva hayvonlarining ko‘p boqilishi hamda yerlarning intensiv o‘zlashtirilishi ko‘rsatiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu oilaga mansub o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi qo‘llanilish sohalarini aniqlashga qaratiladi. Fabaceae oilasi (dukkaklilar oilasi) gullaydigan o‘simliklarning eng yirik va iqtisodiy jihatdan muhim oilalaridan biri hisoblanadi. “Fabaceae” atamasi hozirgi vaqtda yo‘qolib ketgan Faba turkumidan kelib chiqqan bo‘lib, u keyinchalik Vicia turkumi tarkibiga kiritilgan (Asfaw va boshqalar, 2021).

Ushbu oila asosan Amerika va Afrika qit‘alarining tropik yomg‘ir o‘rmonlari hamda quruq o‘rmon ekotizimlarida keng tarqalgan (Rahman va boshqalar, 2014). Fabaceae oilasi taxminan 770 turkum va 19 500 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi va shu jihatdan u gullaydigan o‘simliklar orasida uchinchi eng katta oila hisoblanadi (Maroyi, 2023). Oiladagi eng yirik turkumlarga Astragalus (2400 ga yaqin tur), Acacia (950 tur), Indigofera (700 tur), Crotalaria (700 tur) va Mimosa (500 tur) kiradi. Ushbu turkumlar barcha gullaydigan o‘simlik turlarining qariyb 9,4 % ini tashkil etadi (Ahmad va boshqalar, 2016). Zamonaviy sistematikaga ko‘ra, Fabaceae oilasi oltita kichik oilaga ajratiladi: Caesalpinioideae, Cercidoideae, Detarioideae, Dialioideae, Duparquetioideae va Faboideae (yoki Papilionoideae). Ularning orasida eng yirigi Faboideae bo‘lib, u 503 turkum va 14 000 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi (Maroyi, 2023). Morfologik jihatdan Fabaceae oilasi vakillari juda xilma-xil bo‘lib, ular daraxtlar, butalar, yarim butalar, yog‘ochsimon lianalar, bir yillik va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar hamda ayrim suv o‘simliklarini o‘z ichiga oladi. Barglari odatda murakkab, juft murakkab yoki uch bargli (trifoliolat) bo‘lib, ko‘pincha barg bandi asosida shishgan tuzilma – pulvinus mavjud bo‘ladi. Gullari ko‘pincha zigomorf yoki kam hollarda aktinomorf bo‘lib, ularning changlanishi hasharotlar, qushlar va ayrim hollarda ko‘rshapalaklar yordamida amalga oshadi. Mevasi odatda ikki klapanli quruq dukkak bo‘lib, kamdan-kam hollarda shirali yoki bo‘linuvchi shaklda uchrashi mumkin. Tuxumdon ustki va bir uyali bo‘lishi bilan tavsiflanadi (Maroyi, 2023). Fabaceae oilasi vakillari inson oziqlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular oqsil, energiya, vitaminlar va mineral moddalarning muhim manbai hisoblanadi. Ayniqsa Afro-Osiyo mintaqasida iqtisodiy omillar va an‘naviy ovqatlanish madaniyati ta‘sirida dukkakli ekinlar oziq-ovqat ratsionining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida keng qo‘llaniladi. Dukkakli ekinlar ko‘pincha donli dukkaklilar sifatida yetishtiriladi, chunki ular asosan yeyiladigan urug‘lari uchun ekiladi. Mazkur ekinlar ko‘pincha donli ekinlar bilan

birgalikda dukkak mahsulotlari (dhal) sifatida iste'mol qilinadi hamda tropik va mo'tadil iqlimli hududlarda keng miqyosda yetishtiriladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1-daraja: Yo'qolgan yoki yo'qolishi ehtimol turlar

Bu toifaga uzoq yillar davomida tabiatda uchramagan, ammo sun'iy (madaniy) sharoitda saqlanib qolgan bo'lishi mumkin bo'lgan turlar kiradi. Ular biologik jihatdan eng xavfli holatda hisoblanadi.

2-daraja: Yo'qolib ketish arafasidagi turlar

Soni va tarqalish hududi keskin qisqarib borayotgan turlar. Bu guruhdagi o'simliklar zudlik bilan muhofaza choralari talab qiladi.

3-daraja: Kamyob turlar

Cheklangan hududlarda uchraydigan, o'ziga xos ekologik sharoitga moslashgan va yo'qolish xavfi mavjud bo'lgan turlar.

4-daraja: Son jihatdan kamayib borayotgan turlar

№	Tur nomi	Maqomi	Tarqalish areali	Asosiy xavf omillari	Muhofaza holati
1	Бинафша гулли арғувон <i>Cercis griffithii</i> Boiss.	2. Kamyob endem	Toshkent va surxondaryo viloyati	O'tin uchun ishlatish	Ishlab chiqilmagan
2	Аболин астрагали <i>Astragalus abolinii</i> Popov	2. endem	Toshkent viloyati	Turlar aro raqobatga chiqadmsiz	Chotqol biosfera qo'riqxonasi
3	Баранов астрагали <i>Astragalus baranovii</i> Popov	1. Endem	Toshkent viloyati	Antropogen tasir	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
4	Бинафшаранг астрагал Астрагал центральный <i>Astragalus centralis</i> E.Sheld	2. Kamyob endem	Navoiy, Buxoro viloyatlari	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
5	Борис астрагали Астрагал Бориса <i>Astragalus borissianus</i> Gontsch	1. Kamyob endem	Farg'ona viloyati	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
6	Бутков астрагали Астрагал Буткова <i>Astragalus butkovii</i> Popov	1. Kamyob endem	Qashqadaryo viloyati Xisor tog' tizmasi	Aniqlanmagan	Xisor davlat qo'riqxonasi
7	Бухоро астрагали Астрагал бухарский <i>Astragalus bucharicus</i> Regel	2. Kamyob endem	Surxondaryo viloyati	Aniq malumot yo'q	Muhofaza qilinmaydi
8	Виллис астрагали Астрагал Виллиса <i>Astragalus willisii</i> Popov	2. endem	Surxondaryo viloyati	Chorva mollari uchun oziqa sifatida foydalanish	Surxon davlat qo'riqxonasi
9	Ёнғоқсимон астрагал	1. endem	Toshkent	Chorva mollari	Muhofaza choralari


	Астрагал ореховый Astragalus nucleosus Popov		viloyati	uchun oziqa sifatida foydalanish	ishlab chiqilmagan
10	Зархал астрагал Астрагал позолоченный Astragalus auratus Gontsch.	2. Камыоб endem	Farg'ona viloyati Oloy tog' tizmasi	Chorva mollarinig boqilishi	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
11	Иккиранг астрагал Астрагал двухцветкововидный Astragalus dianthoides Boriss.	2. Камыоб endem	Farg'ona viloyati Oloy tog' tizmasi	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
12	Кнорринг астрагали Астрагал Кнорринг Astragalus knorringianus Boriss	2. Камыоб endem	Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlari	Chorva mollarinig boqilishi, yerlarning o'zlashtirilishi	Nurota va zomin davlat qo'riqxonalarida
13	Комаров астрагали Астрагал Комарова Astragalus komarovii Lipsk	2. kamyob endem	Qashqadaryo viloyati:	Aniqlanmagan	Xisor davlat
14	Массагетов астрагали Астрагал Массагетова Astragalus massagetovii B. Fedtsch.	1. Камыоб endem	Surxondaryo viloyati	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
15	Михаил астрагали Астрагал Михаила Astragalus michaelis Boriss.	2. Камыоб endem	Toshkent viloyati: Ugom va Piskom tizmasi	Aniqlanmagan	Ugom chotqol milliy tabiat bogi
16	Нурота астрагали Астрагал нуратинский Astragalus nuratensis Popov	1. Камыоб endem	Samarqand va Navoiy viloyati	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
17	Патсимон астрагал Астрагал перистый Astragalus plumatus Boriss.	3. Камыоб, endem	Buxoro, Navoiy viloyatlari	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
18	Пахмоктукли астрагал Астрагал ложноязвенниковый Astragalus pseudanthylloides Gontsch.	2. Камыоб endem	Surxondaryo viloyatlari	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
19	Пском астрагали Астрагал пскемский Astragalus pskemensis Popov	2. Камыоб endemik	Toshkent viloyati:	Aniqlanmagan	Ugom-chotqol milliy bogi
20	Пуфак астрагал	2. endemik	Samarqand va	Chorva	Nurota davlat

	Астрагал тонкопузырчатый Astragalus leptophysus Vved.		jizzax viloyati	mollarining boqilishi	qo'riqxonasi
21	Сохта чўл астрагали Астрагал ложноэремофиза Astragalus pseudoeremophysa Popov	2. Kamyob endem	Surxondaryo viloyati	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
22	Сур астрагал Астрагал сплошь серебристый Astragalus holargyreus Bunge	1. kamyob endem	Navoiy viloyati	Chorva mollarining boqilishi	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
23	Тук косачали астрагал Астрагал волосисточашечный Astragalus lasiocalyx Gontsch	2. Kamyob endem	Toshkent viloyati piskom ugom tizmasi	Aniqlanmagan	Ugom-Chotqol Milliy tabiat bog'i
24	Тўполон астрагали Астрагал тупаланский Astragalus tupalangi Gontsch.	1. kamyob endem	Surxondaryo viloyati xisor tog' tizmasi	Aniqlanmagan	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
25	Юлинган астрагал Астрагал оборванный Astragalus rhacodes Bunge.	2. kamyob	Farg'ona viloyati oloy tizmasi	Chorva mollarining boqilishi	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
26	Юмалок тўпгулли астрагал Астрагал почти шахимарданский Astragalus subschachimardanus Popov.	2. o'ta kamyob endem	Surxondaryo viloyati: ko'hitang tizmasi	Chorva mollari payhon qilishi	Surxon davlat qo'riqxonasi
27	Қизилтомир астрагал Астрагал красножилковый Astragalus rubrivenosus Gontsch.	2. endemik o'simlik	Toshkent viloyati: Chotqol tizmasi	Aniqlanmagan	Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi
28	Қизил тупрок астрагали Астрагал красноземный Astragalus terrae-rubrae Butkov	3. kamyob endem	Qashqadaryo va surxondaryo viloyati: Xisor tizmasi	O'sish sharoiti maxsus tuproqda	Surxon va Hisor davlat qo'riqxonasi
29	Қизғиш астрагал Астрагал красноватый Astragalus rubellus Gontsch.	1. Kamyob endem	Farg'ona viloyati Yozyovon cho'lida	Yerlarni o'zlashtirilishi	Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
30	Кўрғошин астрагал Астрагал свинцовый Astragalus plumbeus	2. endem	Surxondaryo viloyati: Ko'xitang	Chorva mollarining boqilishi	Surxon davlat qo'riqxonasi muhofazasida

	(Nevski) Gontsch.		tizmasida		
31	Одилов астрагали Астрагал Адылова Astragalus adylovii F.O. Khass., Ergashev et Kadyrov	2. kamyob endemik	Navoiy va Buxoro viloyatlari	Chorva mollarining boqilishi	Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
32	Алексей астрагали Астрагал Алексея Astragalus alexeji Gontsch.	0.endemik	Surxondaryo viloyati	Aniqlanmagan	Muhofaza qilinmagan
33	Белолипов астрагали Астрагал Белолипова Astragalus belolipovii Kamelin ex F.O. Khass.et N. Sulejm.	1. Kamyob tur	Turkiston tizmasi qulsoy darasida	Anqilanmagan	Zomin davlat qo‘riqxonasi
34	Жанубий Фаргона астрагали Астрагал южноферганский Astragalus austroferganicus Kamelin et R. M. Vinogr.	0.Kamyob endemik	Farg‘ona vodiysi	Xo‘jalik ishlari yuritilganligi uchun	Muhofaza qilinmagan
35	Кизил хўроз астрагали Астрагал кызыл- хуразский Astragalus rubri-galli Popov	1.Kamyob endemik	Surxondaryo viloyati	Chorva boqilishi, yerlarni o‘zlashtirilishi	Muhofaza qilinmaydi
36	Шуълали зиракўт Эспарцет таверниерелистный Onobrychis tavernierifolia Stocks ex Boiss.	1.kamyob tur	Buxoro viloyati	Chorva mollarini boqilishio	Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
37	Бурчоксимон калиспеpla Калиспеpla эгакантовая Calispepla aegacanthoides Vved.	1.endemik	Surxondaryo viloyati Boysun tog‘i	Antropogen omillar	Muhofaza qilinmaydi
38	Қорапоя мойқорағон Майкараган сетчатый Calophaca reticulata Sumnev	1. Kamyob endemik	Surxondaryo viloyati Xisor tog‘ tizmasi	Chorva mollarining boqilishi	Muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
39	Йирик нўхат Нут большой Cicer grande (Popov) Korotkova	1.Kamyob endemik	Jizzax va Surxondaryo viloyatlari	Chorva mollarining boqilishi	Nurota va Surxon davlat qo‘riqxonasi
40	Кудройи нўхат Нут седой Cicer incanum Korotkova	1.Kamyob endemik	Qashqadaryo	Stenobiont endemik tur	Xisor davlat qo‘riqxonasi
41	Введенский окситрописи Остролодочник	3.endemikm	Tog‘larning o‘rta va yuqori qismlarida	Aniqlanmagan	Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan

	Введенского Охутропис vvedenskyi Filim.				
42	Майда гулли окситропис Остролодочник мелкоцветный Охутропис tyttantha Gonsch.	3.Endemik tur	Qashqadaryo va surxondaryo viloyatlari	Aniqlanmagan	Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan
43	Майдонтол окситрописи Остролодочник майдантальский Охутропис maidantalensis B. Fedtsch.	2. Kamyob endemik	Toshkent viloyati	Aniqlanmagan	Ugom-chotqol milliy tabiat bog'i
44	Нимранг пушти окситропис Остролодочник ложнорозовый Охутропис pseudorosea Filim.	2.Endemik tur	Jizzax Samarqand Navoiy viloyatlari	Chorva Mollarining boqilishi	Nurota qo'riqxonasi
45	Федченко окситрописи Остролодочник Федченко Охутропис fedtschenkoana Vassilcz.	2.endemik tur	Toshkent viloyati Chotqol va qurama tizmasi	Chorva mollarini boqilishi	Chotqol biosfetra qo'riqxonasi
46	Юпқа пардали окситропис Остролодочник ложнотонкопузырчатый Охутропис pseudoleptophysa Boriss.	2.kamyob endemik tur	Surxondaryo viloyati Ko'xitrang tizmasi	Aniqlanmagan	Mahsus muhofaza ishlab chiqilmagan Surxon qo'riqxonasi
47	Ангрен тангаўти Копеечник ангреникий Hedysarum angrenicum Korotkova	1.kamyob endemik	Toshkent va Namangan viloyatlari	Chorva mollarining boqilishi	Muhofaza qilinmaydi
48	Бухоро тангаўти Копеечник бухарский Hedysarum bucharicum B. Fedtsch	2.kamyob tur	Qashqadaryo va surxondaryo viloyatlari	Chorva mollari boqilishi	Xisor davlat qo'riqxonasi
49	Дробов тангаўти Копеечник Дробова Hedysarum drobovii Korotkova	1.kamyob endemik	Toshkent viloyati ugom va chotqol tizmasi	Chorvoq suv ombori qurilishi munosabati bilan	Ugom chotqol milliy tabiat bog'i
50	Омонкўтон тангаўти Копеечник аманкутанский Hedysarum amankutanicum B. Fedtsch.	0.	Samarqand viloyati zarafshon tog'i	Aniqlanmagan	Muhofaza qilinmaydi
51	Тизма тангаўт	3.kamyob	Surxondaryo va	O'ziga hos	Surxon va hisor

	Копеечник великолепный <i>Hedysarum magnificum</i> Kudr.	endemik	qashqadaryo viloyatlari	tuproqda o'sish xususiyatiga ega	davlat qo'riqxonasida
52	Лангарсимон чезнея Чезнея якорцевидная <i>Chesneya tribuloides</i> Nevski	3.kamyob endemik	Surxondaryo viloyati	Chorva molarining boqilishi	Surxon davlat qo'riqxonasi
53	Бочанцев эверсманнияси Эверсманния Бочанцева <i>Eversmannia</i> <i>botschantzevii</i> Sarkisova	1.kamyob endemik	Qashqadaryo viloyati ellikbosh tizmasi	Chorva molarining boqilishi	Muhofaza etilmaydi
54	Осилувчан (эгилувчан) кулонкуйрук Эремоспартон обвислый <i>Eremosparton</i> <i>flaccidum</i> Litv.	2.Kamyob	Buxoro va navoiy viloyatlari	Chorva mollarining boqilishi	Mahsus muhofaza ishlab chiqilmagan



Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, turlar sonining kamayishiga bir qator muhim omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, chorva mollarining nazoratsiz hamda me'yoridan ortiq boqilishi, yerlarning qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun o'zlashtirilishi, dorivor o'simliklarning me'yoridan ortiq yig'ib olinishi ushbu jarayonni jadallashtirmoqda. Shuningdek, ayrim turlarning raqobatbardoshlik darajasining pastligi, urug'larining unuvchanlik ko'rsatkichlari pastligi, texnogen omillar ta'siri hamda iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan qurg'oqchilik jarayonlari ham turlar sonining qisqarishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA

O'zbekiston florasida **Fabaceae (burchoqdoshlar)** oilasiga mansub turlarning tahlili natijasida ushbu oilaning 54 ta turi kamyob, endem hamda yo'qolib ketish xavfi ostida ekani aniqlanib, ular O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilganligi qayd etildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turlar sonining qisqarishida antropogen omillar muhim va hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Xususan, chorva mollarining me'yorida ortiq va nazoratsiz boqilishi, yerlarning qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun o'zlashtirilishi hamda o'simliklarning dorivor xomashyo sifatida nooqilona yig'ib olinishi asosiy xavf omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ko'plab turlar uchun maxsus muhofaza choralari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlangan. Shu bois, olib borilgan tahlillar asosida kamyob va endem turlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy populyatsiyalarini saqlab qolish va qayta tiklash, muntazam monitoring ishlarini tashkil etish hamda muhofaza choralari kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Mazkur tadqiqot natijalaridan O'zbekiston florasida kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik turlarini, xususan **burchoqdoshlar oilasi** vakillarini muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, I жилд: Ўсимликлар. – Т.: "Тасвир" нашриёт уйи, 2019. – 246-275 б.
2. Asfaw, MM, & Abebe, FB (2021). Efiopiyadagi Fabaceae oilasiga mansub an'anaviy dorivor o'simlik turlari: tizimli sharh. Xalqaro o'simlik biologiyasi jurnali, 12(1), 8473.
3. Rahman, AHMM, & Parvin, MIA (2014). Bangladeshning Rajshahi shahrida Fabaceae oilasining dorivor qo'llanilishini o'rganish. O'simlikshunoslik bo'yicha tadqiqotlar, 2(1), 6-8.
4. Maroyi, A. Zimbabvedda Fabaceae oilasining dorivor maqsadlarda qo'llanilishi: Sharh. O'simliklar. 2023; 12 (6): 1255.
5. Ahmad, F., Anwar, F., & Hira, S. (2016). Fabaceae oilasining dorivor ahamiyati haqida sharh. Farmakologiya onlayn, 3, 151-157.
6. Флора Узбекистана. Том V. Сост.: Бондаренко О.Н., Бутков А.Я., Введенский А.И. и др. – Ташкент, 1961. –
7. Flora Uzbekistana. – Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR, 1941–1962.
8. Oprelitel rasteniy Sredney Azii. – Tashkent: Fan, 1968–1993.
9. Flora of the USSR. – Moscow–Leningrad: Academy of Sciences of the USSR, 1934–1964.